

IJTIMOY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHGA OID TUSHUNCHALARNI TADQIQ ETISHGA QARATILGAN ILMIY YONDASHUVLAR

Xamdamov A.E
Mustaqil izlanuvchi

Ijtimoiy xavfsizlik tizimini ifodalashda uning murakkabligini e'tiborga olib, uni muhim elementlarga ajratib olib, alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Bunda ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha fikr yuritishda markaziy o'rinni egallaydigan manfaatlar va tahdidlar tushunchalari tayanch nuqta sifatida qabul qilinadi.

Ijtimoiy xavfsizlik sohasidagi manfaatlar.


Manfaat tushunchasining mohiyatini yoritishdan avval ehtiyoj va ne'mat tushunchalari haqida to'xtalib o'tish lozim, sababi ular o'zaro bog'liq hisoblanadi.

Ehtiyoj deganda odatda, o'zini o'zi saqlash, o'zini o'zi qayta tiklash va o'zini o'zi takomillashtirish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar tushuniladi. Ehtiyoj bir vaqtning o'zida shaxs, jamiyat, davlat hayot faoliyatida ham maqsad ham vosita hisoblanadi, u moddiy boyliklarni ishlab chiqarish va taqsimlashning natijasini o'lchovchi mezon hisoblanadi. Xavfsizlik uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joyga bo'lgan individual (asosiy) ehtiyojlar muhim hisoblanib, ularning qondirilmasligi hayotning tugashiga olib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqadiki, shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligiga o'zini o'zi saqlash, o'zini o'zi qayta tiklash va o'zini o'zi rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish orqali erishiladi.

Ehtiyojni qondirishi mumkin bo'lgan barcha narsa tegishli ne'mat sifatida talqin etiladi. Qadriyatlar shaxsiy, guruhiy va umummilliy bo'lishi mumkin. Ular ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib xizmat qilishi bilan birga, umumiy boyliklardan boshqalar xuquqlarini poymol etmagan tarzda foydalanish uchun me'yor hisoblanadi. Demak, ne'matlar alohida shaxslarigina emas, balki ular shakllantirgan jamiyatda faoliyatni amalga oshirish va xulq atvorni belgilash bo'yicha chegaraviy, ratsional, me'yoriy asoslarni shakllantiradi²⁵ (1.4-rasm).

Alohida shaxslarning yoki jamiyatning o'z ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan narsalar to'g'risidagi subyektiv qarashlari ularning manfaatlari sifatida qaralishi mumkin. Manfaatlarning subyektivligi, odatda ularning o'zgaruvchanligi va o'ta shaxsiy ekanligi, doimo kimgadir tegishli bo'lishi, faqatgina aniq shaxs yoki ularning jamiyatgagina (jamiyat, davlat) nafli ekanligi bilan tushuntirilishi mumkin.

²⁵ Батафсил қаранг: Экономическая и национальная безопасность: Учебник. Под ред. Е.А.Олейникова. 2-е изд. – М.: Экзамен. 2015. – С.49.




1.4-rasm. Manfaat, ehtiyoj va ne'mat tushunchalari

Shuning asosida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari bir-biridan farqlanadi. Ularning eng muhim ehtiyojlari hayotiy muhim manfaatlar sifatida qabul qilinadi. Masalan, davlatning hayotiy muhim manfaatlariga hududiy yaxlitlik, aholinig tug'ilish darajasini barqarorlashtirish, millatlararo birlikni ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik, aholi va yosh avlodning salomatligini saqlash, kelajak avlod uchun munosib hayot sharoitini yaratish kabilar kiradi.

Ijtimoiy xavfsizlik bilan bog'liq ilmiy manbalarda shaxsning, jamiyatning va davlatning ijtimoiy xavfsizligi ta'minlanganligi darajasi ularning ushbu sohadagi hayotiy muhim manfaatlarining bir biridan ko'lamining kengligi bilan ajralib turishida ham aks ettirilgan, xususan:

1) davlatning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq hayotiy muhim manfaatlari quyidagilardan iborat (1.5-rasm):

- ijtimoiy, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash;
- ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash.



1.5-rasm. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi davlatning hayotiy muhim manfaatlari

2) Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi (1.6-rasm):

- millatlararo, konfessiyalararo va fuqarolik totuvlikni ta'minlash;
- aholining ijtimoiy faolligini kuchaytirish;
- millatning ma'naviy tiklanishini va milliy o'zlikni anglashning o'sib borishini ta'minlash;
- jamiyatning ma'naviy-axloqiy, ma'naviy va boshqa demokratik qadriyatlarini himoya qilish;
- jamiyatda inson kapitalini oshirish, uning salohiyatini rivojlantirib borish;
- oila institutini qo'llab-quvvatlash orqali milliy genofondni saqlash va aholining salomatligini ta'minlash.

3) shaxsning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq hayotiy muhim manfaatlari (1.7-rasm):

- inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmatlash;
- shaxsning ma'naviy va intellektual kamol topishini hamda o'zligini namoyon etishini ta'minlash;
- hayotiy ehtiyoj minimumini va inson farovonligi oshishini ta'minlash.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tahdidlarni yuzaga keltiruvchi sog'liqni saqlash omilining ta'sirini bahosi va transformatsion sharoitlarda ularning o'zgarish dinamikasi vaqt, zamon va makon kesimida turli jamiyatlardagi ijtimoiy institutlar, qadriyatlar va sotsial munosabatlar tizimining o'ziga xos xususiyatlari asosida farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. European Center for Social Welfare Policy and Research Assessing the motivation, expectations and preferences of medical residents // <https://www.euro.centre.org/projects/detail/3061>, 14.10.2023.
2. United nations Research Institute for Social Development Social security: issues, challenges and prospects// <https://www.un.org/sg/en/global-leadership/united-nations-research-institute-for-social-development/all>, 21.02.2024.
3. International Labour Organization Social Security Issues // <https://www.ilo.org/declaration/lang--en/index.htm>, 21.01.2024.
4. United nations Research Institute for Social Development Social security: issues, challenges and prospects// <https://www.un.org/sg/en/global-leadership/united-nations-research-institute-for-social-development/all>, 21.02.2024.